

BOLANI KASB-HUNARLI QILIB TARBIYALASHDA OTA-ONA VA OILANING O'RNI.***Qurbanboyeva Gulayho Shuhrat qizi****Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani**29-maktab psixologi****Ruzimova Shohista Qadam qizi****Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani**26-maktab psixologi*

Annotasiya. Ushbu maqolada o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ota-ona maktab va mahalla hamkorligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: oila, ota-ona, farzand, maktab mahalla hamkorligi.

Inson bolasi dunyoga kelar ekan, u mustaqil harakatlanish, yurish, o'qish, yozishdan boshlab tabiat va jamiyatning barcha murakkab qonunlari bilan yuzma-yuz kelganda nimalar qilish kerakligi o'rgatiladi yoki bunga maxsus o'qitiladi.

Ma'lumki hayotimizning yarmida ko'pini qamrab oladigan, chinakam to'laqonli insoniy baxtni in'om etadigan yoki aksincha, har tomonlama ta'minlaganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir.

Insoniyat jamiyati taraqqiy etib brogan sari odamlarning o'zlari ham, ularning birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi.

Hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'yimoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti, bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar kishilarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikning qisman buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqlashlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Jamiyat uchun nihoyatda ahamiyatli hisoblangan ota-ona va bola, er va xotin, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari oila muhitida shakllanib boradi.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifani bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida bapirganda, bir tomondan jamiyatning

oilaga ta'siri, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rni oilaning hal qiladigan ijtimoiy vazifalarini hisobga olish lozim.

Biz uchun hozirgi kunda eng dolzarb va ahamiyatga molik masalalardan biri farzandlarimizni mustaqil fikrli zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallaydigan mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash vazifasidir.

Ba'zi biro ta-onalar bolalarning istedodi qobiliyati hamda ularning orzularini to'g'ri hisobga olib ularni munosib o'qishga va ishga undaydilar. Qush o'z uyasidagi bolaarini parvozga tayyorlaydi, inson esa oila uchog'ida katta hayot ummmonida javlon urishga o'zi hohlagan kasbini to'g'ri tanlashga o'rgatmog'i lozim.

Biz yoshlarni tarbiyalashda o'zimiz yashab turgan muhit bilan hozirgi sharoitni farqini ko'zda tutib ish yuritishimiz lozim. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifasi tarbiyadir. Bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishtini qo'yguncha javobgardir.

Ota-ona – san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'alalarimiz bu borada kata ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning barkamol fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining maskur vazifasi darajasiga kiradi.

Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi. Bolalarni yoshligidan kasbga yo'naltirishni yanada takomillashtirish mamlakatimizni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish muammosining muhim ahamiyati shundaki, kelajakda mutaxassislar sonini ko'paytirish lozim.

Inson uchun jamiyatda xilma-xil kasblar bor. Manashu rang-barang kasblar orasidan o'z qobiliyati va qiziqishiga muvofiq kasbni tanlash o'smir hayot yo'lini-mehnat faoliyatini to'g'ri boshlashi uchun juda muhimdir. Mustaqil fikrga ega bo'lgan insongina hayotda o'z yo'lini to'g'ri tanlay oladi. Bugungi yoshlarimiz uchun ham aynan shu xislat juda muhimdir. Endilikda har bir o'quvchi hayotini kasb-hunarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki har qanday mehnat faoliyatida mustaqil hayotning dastlabki bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan o'smiringina kasb-hunar egallashda yuqori natijalarga erishadilar. Masalan, o'smir hayotining dastlabki yillarida oddiy ishchi yoki qishloq xo'jaligining biror sohasida xodim bo'lib ishlagan bo'lsa, shu ishning nozik tomonlarini bilsa, u kelajakda o'zining mustaqil fikri bilan o'zi hohlagan

kasbni zo‘r mutaxasisi bo‘ladi. Kasb tanlashga yo‘naltirish mashg‘ulotlarini o‘tkazishda biz maktab o‘quvchilarida, birinchi navbatda shu kasbga bo‘lgan munosabati va qiziqishini e‘tiborga olishimiz kerak. Har bir fanning o‘qitilishi samaradorligining oshishiga, fan asoslari bilan mehnat ta‘limi o‘rtasidagi ichki mantiqiy aloqadorlikda bog‘liq. Umumta‘lim maktablari o‘tiladigan har bir dars o‘quvchilarga nafaqat tabiat va jamiyat qonunlari haqida bilimlar berilishi, balki shu bilan bir qatorda, ularni turli kasb -hunar bilan tanishtirilishi o‘quvchilarning turli kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini uyg‘otishi, rivojlantirishi lozim. O‘quvchi o‘zini-o‘zi faqat tanlagan kasbi mehnatini va uning kelajakdagi ahamiyatini to‘g‘ri bilishi lozim.

Har bir inson o‘ziga muvofiq kasb tanlashni, tanlagan kasbida mustaqil ishlashni, kasbni ijodiy o‘zlashtirishni, o‘z xarakterini, iroda kuchini shakllantirishni, o‘z professional kasbiy qobiliyatini takomillashtirishni istasa, hech qachon kech bo‘lmaydi, lekin bu ishni maktablardagi o‘quvchilik yillaridan boshlasa juda katta samaradorligi bo‘ladi.

2024-yilni 5-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida ijtimoiy sohadagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda maktabgacha va maktab ta‘limi tizimini tahlil qilib, kelgusi rejalarni belgilab berdilar.

Shuningdek, maktablarda o‘rgatish mumkin bo‘lgan 50 ta kasb-hunar ro‘yxati tuzilib, har biri bo‘yicha o‘quv va amaliyot dasturlari ishlab chiqiladi. Buning uchun maktablarda ustaxonalar tashkil etiladi va „Kasbiy ta‘lim ustasi“ lavozimi joriy etiladi. Tadbirkorlar, usta va mutaxassislarni jalb qilgan holda o‘quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib kasbiy ta‘limga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi, kasb to‘garaklari tashkil etiladi. Maktabdagi bo‘sh joylar tadbirkorlarga o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitish uchun tekin foydalanishga beriladi. O‘quv kurslarini tamomlab, imtihondan o‘tgan o‘quvchilarga malaka sertifikatini beriladi.

Maqsadimiz- maktab bitiruvchisi hech bo‘lmaganida bitta kasbni egallab kata hayotga qadam qo‘ysin-dedilar yurtboshimiz.

Ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilib, ularning zararli ta‘siridan himoyalash va ijobiy tomonidan foydalanish bo‘yicha ota-onalar va o‘quvchilarga soda tilde qo‘llanmalar yaratish muhimligi qayd etildi. Maktabga moslashish va kitobni sevishga o‘rgatish, yaxshi xulqli bo‘lish, atrofdagilar bilan muloqot qilishni o‘rganish va bilim olishga kuchli ishtiyoqni shakllantirish, kasb tanlash, jamiyatga moslashish, kata hayotga qadam qo‘yishda farzandlarga qanday yo‘l-yo‘riq berish zarur, degan savollar yuzasidan ota-onalar uchun xalqchil tilda materiallar tayyorlash lozimligi haqida aytib o‘tdilar.

Ajdodlarimizning farzand tarbiyasiga milliy qadriyat sifatida qaraganida katta ma‘no bor. Ayniqsa dunyoda globallashtirish jarayonlari kechayotgan bizning davrimiz bola tarbiyasiga yanada e‘tiborli bo‘lishni, qarovsiz va nazoratsiz qoldirmaslikni talab qilmoqda, „Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona“ degan maqolimiz bejiz

aytilmagan. Yosh avlod ta'lim –tarbiyasi nafaqat maktab, balki ota-ona va mahalla vakillarining muhim vazifasidir.

Oila –jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida el-u yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada shallanadi. Mamlakatning ertangi kuni tinch va obod bo'lishi eng oldin manashu kichik jamiyatda o'sib unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha gullab –yashnaydi va bardavom bo'ladi.

Oila ,odob- axloq va ta'lim –tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchimizdandir. Oiladagi muhit ota-ona o'z mas'uliyatlatini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona eng katta javobgar shaxs hisoblanadi.

Farzandlarimizga shunday tarbiya beraylikki, ular o'z ota –bobolariga ,o'z tarixi Vatani, ona tiliga , millati, diniga an'analariga va davlat ramzlariga sodiq bo'lib kamol topishsin, Anashundagina bunday yoshlar o'z Vatanini yuksaklarga olib chiqadi, Bunday yoshlar ota-onasini dunyoga tanitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yilning 5-fevral kunidagi yig'ilishdagi ma'ruzasi .
- 2.Ġ.B.Shoumarov tahriri ostida Oila psixologiyasi „Sharq" nashriyoti" Toshkent-2013-yil.
- 3.N.Boymurodov Kasb psixologiyasi „Yangi asr avlodi". Toshkent 2005-yil